

YOSHLARDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA
SAN'ATINING ESTETIK MADANIYAT SHAKLLANISHIGA KO'RSATGAN TA'SIRI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

O'qituvchisi:

Suvanova Dilnura Kurbanovna

+998938365550

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ongida estetik madaniyatini shakllantirish va ular ongida musiqa san'atining ezgu ohanglari yuksak va nozik insoniy kechinmalarini ifoda etish, til, urf-odat va marosimlar turli bayramlarning estetik madaniyat shakllanishiga ko'rsatgan ta'siriga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Inson, shaxs, jamiyat, qadriyat, yoshlar, musiqa, ong, madaniyat, estetika, go'zallik, falsafa, san'at, ulug'vorlik, ma'naviyat.

Abstract. The article focuses on the formation of musical and aesthetic culture in the minds of young people, and the fact that the person who creates beautiful music is an aesthetic and spiritual person, as well as expressing the noble high and delicate human experiences of music in their minds.

Keywords: Man, individual, society, world, youth, music, mind, consciousness, culture, aesthetics, experience, beauty, philosophy, art, grandeur, spirituality.

Kirish

Har qanday jamiyatning muhim tarkibiy qismi estetik madaniyatdir. Uning rivojlanishi aniq bir insoniyat jamiyati nafaqat moddiy muammolarda, balki ma'naviy tarbiya haqida ham g'amxo'rlik qiladi. Estetik madaniyat hamma narsani chiroyli ko'rishga yordam beradi, o'zingizni yaratadi, ko'rilgan go'zallikdan quvonadi. Badiiy madaniyat insonning estetik madaniyat markazi hisoblanadi. Bolalar bog'chasida estetik madaniyatni shakllantirish bolaligida boshlanadi. Insondagi go'zallik aksariyat hollarda uning xulqi, odobi, axloqi va fazilatlarini bilan belgilab kelinadi. Har bir inson go'zallikni o'zining estetik dididan, estetik idealidan kelib chiqib tushunadi. Bir so'z bilan aytganda, go'zallik- ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy hayotda favqulotda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa hodisalarning uyg'unligi, hamohangligi, muttanosibligi, maqsadga muvofiqligiga asoslangan qadriyatdir.¹ Insoniyat hayoti davomida barcha davrlarda ham estetik tarbiya dolzarb va eng asosiy muammolardan biri bo'lganligi- bu tarixiy haqiqatdir. Chunki, dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, insoniyat musiqiy ong va estetik madaniyatga suyangan holda xamisha ezgulikka, ma'naviy yuksaklikka intilib kelgan, xayotda yaxshi, go'zal xayot kechirishga, kelajak avlodlarga o'zidan yaxshi nom, xayotbaxsh qadriyatlar qoldirishga intilgan. Hozirgi davrda xalqni ayniqsa yoshlarni musiqiy ong va estetik madaniyatini yanada yuksaltirish nafaqat biz uchun xam milliy, umumbashariy ahamiyat kasb etadi, bu masala umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Shuningdek, jahon miqyosida yoshlarning musiqiy ong va estetik madaniyatini yuksaltirish muammolarining intellektual va emotsional jihatlarini yoritish, xalqimiz hayotida azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Bunda asosan musiqa sadolari eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Go'zal musiqa yaratgan shaxs yuksak ma'naviyat egasi bulishi shubxasiz. Shuni aytish mumkinki,

¹ Abdulla Sher, Bahodir Husanov "Estetika" uslubiy qo'llanma. T., "O'zbekiston" 2010. 114 bet

birinchidan, mamlakatimizda "musiqiy ong" va "estetik madaniyat" muammosi asosan miqdor va tushunchali tasavvurlar, ya'ni differensiallashgan nazariy g'oyalarning mantiqiy integrallashuvi asosida shakllangan abstrakt-simvolik obrazlar sifatida talqin qilinib kelingan. Bu esa yoshlarning o'z faoliyatida musiqa san'ati va estetik madaniyat yutuqlaridan, zamonaviy ijtimoiy-madaniy konsepsiyalardan foydalanish ko'nikmasini yuksak darajaga olib chiqishda turli darajadagi murakkabliklarni yuzga keltirdi. Ikkinchidan, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jabhasi bo'lgan musiqa san'ati juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozik ta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zguvidir. Jumladan, sho'rolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik quliga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'lga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan baxramand bo'la boshladilar. Uchinchidan, istiqloq tufayli ma'naviy turmushimizdagi ko'plab muammolar hal etila boshlandi.

Qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat, bozor munosabatlariga o'tish, jahon hamjamiyati bilan mafkuraviy tayziqlarsiz o'zaro xamkorlik qilish imkoniyati O'zbekiston madaniyatini xalqchil qildi. Ayni paytda, O'zbekiston, o'zbek xalqining dunyodagi o'ziga xos va mos o'rni borligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho xissasining e'tirof etilishi tufayli ma'naviy xayotning gullab-yashnashi uchun mustahkam zamin yaratildi. To'rtinchidan, inson musiqa, tasviriy san'at asarlari va boshqalarga o'ziga xos kechinma va obrazlarni tuygan holda munosabatda bo'ladi, aks ettirish jarayoniga, boshqacha aytganda, insonning o'z ruhiy realligini anglashga jalb etiladi. Beshinchidan, inson aql-zakovatiga musiqaning ta'sir etishini odamzod qadimdan beri o'rganib kelmoqda.

Musiqa san'ati insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda qanchalik zarur omil bo'lib kelayotgani asrlar osha barcha olimlarning e'tiborini jalb etmokda. Oltinchidan, yoshlarning musiqiy ong va estetik madaniyatini yuksaltirish sohasidagi hissiy-emotsional qabullash malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni, borliqni estetik baholash va amaliy munosabatda bo'lish qobiliyatlarini tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega. Chunki borliqni hissiy-emotsional qabullash tabiiy go'zallikning, asosan shaklini, xodisasini aks ettirsa, estetik baholash darajasida, uning mohiyati va mazmuni mushtarak tarzda ifodalanadi. Har ikki bosqich o'zaro uzviy bog'lik bo'lib, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini bilish va inson estetik madaniyatining rivojlanish darajasiga mos keladi.

Umuman olganda, musiqiy ong va estetik madaniyatning o'zaro sinkretikligi, yoshlar ongida simbioz rivojlanishiga oid turli qarashlar ilgari surilmoqda. Shu ma'noda musiqiy ong muammosini o'rganish falsafiy tafakkur tarixining barcha davrlarida muhim o'rin tutib kelgan. Shuningdek, estetik madaniyat muammolarini shartli ravishda guruhlash mumkin. Birinchi guruhdan musiqiy ong va estetik madaniyat tushunchalarining tabiati muammosini umumnazariy jihatdan o'rgangan mumtoz falsafiy manbalar, keng qo'lamda o'rganilgan ularni turlarini qamrab oluvchi ilmiy tadqiqotlar; ikkinchi guruhdan inson, yoshlar ma'naviy madaniyatida musiqiy ong va estetik madaniyat masalalarni qamrab oluvchi diniy-ma'rifiy, aksiologik ilmiy tadqiqotlar; uchinchi guruhdan musiqiy ong va estetik madaniyatning milliy-etnik xususiyatlari, ijtimoiy idealning klassifikatsiyasi, yoshlar estetik madaniyati, uning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi roli hamda ilmiy bilimlar tizimidagi o'rni o'rganilgan tadqiqotlar; to'rtinchi guruhdan hozirgi zamon musiqiy ong va estetik madaniyatining shakllanish mezonlari, omillari haqidagi ilmiy tadqiqotlar; beshinchi guruhdan esa hozirgi zamon falsafasida yoshlar estetik ta'lim-tarbiyasiga oid masalalar aloxida o'rin tutishi, ayniqsa, unga ijtimoiy-madaniy evrilishlar, «ommaviy madaniyat»ning ta'siri katta ekanligi, shu bilan birga, shaxs

estetik madaniyatining shakllanishida ilm-ma'rifat, san'at va sportning xam ta'siri masalalariga bag 'ishlanganligi ta'kidlash joizdir.

Xulosa qilib aytganda Bu fikrlarning barchasi o'z navbatida yosh avlodni chuqur bilimli, zukko, teran qolaversa, o'z o'tmish durdonalaridan va urf –odat an`analaridan. Bugungi kunda komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bunday qudratli davlatning kishilari ham o'z g`ururi, or-nomusi va qadriyatlarini himoya qilishga qodir insonlar bo`lishi lozim. Shunday ekan, biz tarbiya jarayonida inson sha`ni, g`ururi, uyati, or-nomusi va uni asrash, himoya qilishni yoshlarga o`rgatishimiz hamda oldimizga asosiy maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Bugungi yoshlarimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o`ziga xos milliy qadriyatlarning sohibi sifatida, odob-axloqimiz namunasi asosida ish tutadilar. Bugungi yoshlarimizda Yevropa madaniyatiga taqlid qilish odatlari kam bo`lsada, uchrab turadi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun har bir yosh avlod o'z eliga, xalqiga, yurtiga nisbatan kuchli g`urur, or-nomusni shakllantirishi maqsadga muvofiq. Yoshlarning musiqiy ong va estetik madaniyatini yuksaltirishning g 'oyaviy-badiiy va falsafiy xususiyatlari, estetik madaniyatini yuksaltirishni jahon olimlari tomonidan o`rganilish masalasi, yoshlarni milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda xozirgi zamon ta'lim tizimiga muvofiqligini asoslashda g 'oyaviy-badiiy va falsafiy xususiyatlari guzallik va ulugvorlik, ezgulik va haqiqatga erishish g 'oyalari bilan bog 'lik holda tavsiflangan hamda yoshlarning musiqiy ong va estetik madaniyatini yuksaltirish omillarini chuqurroq anglab yetishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. SH.O.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston".-2017 y.
2. X.Sapoxonov, M.Yo'ldasheva. Etika-estetika asoslari. /O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent; -2014 y.
3. Juraev, M. D., Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., & Gaziev, L. T. (2023). Androgen receptor values for prediction of survival of patients with three times negative breast cancer. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(6), 104-106.
4. Tursunova, N. I., Almuradova, D. M., Turayeva Kh, K. H., & Muqimova, D. I. (2022). Hereditary breast and ovarian cancer. EDUCATION AND SCIENCE IN THE XXI CENTURY, (24), 1200-1212.
5. Abdulla Sher, Bahodir Husanov "Estetika"uslubiy qo'llanma. ,T., "O'zbekiston" 2010. 114 bet